

RASHOD NURI GUNTEKINNING “YASHIL KECHA” ROMANIDA O‘QITUVCHI OBRAZI VA TA’LIM TIZIMIDAGI MUAMMOLARNING YORITILISHI

Shahlo Sa’dullayeva Anvarovna

Buxoro shahar 20-umumta’lim maktabi

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Email: shahlo.sadulla@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada turk adabiyotining eng dongdor yozuvchilaridan bo‘lmish Rashod Nuri Guntekinning “Yashil kecha” romanida o‘qituvchi obrazi, uning funksional vazifalari, Jumhuriyat davrida turk ta’lim tizimidagi muammolar va ularning yechimlari, milliy tiklanishdagi ahamiyati kabilar tilga olinadi.*

***Kalit so‘zlar:** O‘qituvchi obrazi, Jumhuriyat davri, yangi usul maktablari, mafkuraviy konflikt.*

Taniqli turk yozuvchisi Rashod Nuri Guntekinning o‘qituvchilar va ta’lim mavzusini asosiy mavzu sifatida yoritgan asarlaridan biri “Yashil kecha” romanidir [1. 12-bet]. Bu roman 1928-yilda nashr etilgan bo‘lib yozuvchi ijodida burilish yasashga sabab bo‘lgan asardir. Bu burilish asarda ijtimoiy muammolarning keng yoritilishida o‘z aksini topgan deyiash mumkin. Jamiyatdagi muammolar asosiy mavzu qilib olingan va bu muammolarga muallifning o‘z dunyoqarashi yordamida yechim topishga harakat qilingan bu asarda an’anaviy (eski) ta’lim tizimi va yangi, zamonaviy ta’lim tizimining o‘rtasidagi tavofutlar keng yoritib berilgan. Asosiy urg‘u jamiyatning rivojlanishi uchun yangi ta’lim tizimiga ehtiyoj borligiga berilgan. Bu mavzuga boshqa romanlarida ham o‘xshash bir shaklda o‘rin bergan ijodkor boshqa romanlaridan farqli ravishda “Yashil kecha” romani tezis tarzida, yo‘l-yo‘riq tarzida yozilgan roman deb qaraladigan bu asarda ijtimoiy muammolar boshqa asarlarga

nisbatan chuqurroq tarzda yoritilgan. “Choliqushu”, “Og‘rimoq”, “Qon da’vosi” romanlarida ham ta’lim mavzusi yoritilsa-da, bu mavzu tamal mavzu bo‘lmay orqa plandagi mavzulardan bo‘lib qolgan [2. 168-bet].

“Yashil kecha”ning bosh qahramoni Shahin muallim madrasa ta’limini olgan, madrasa muallimlarini yaqindan tanigan bir insondir. Madrasadagi ta’limini yakunlamayoq Dorulmuallimin (yangi usul o‘qituvchilar tayyorlash maktabi)ni tamomlab, O‘z istagi bilan eski usul ta’limi beriladigan joy Sariovaga borib, eski ta’lim vakillari bilan ma’naviy kurashga kirishadi deya olamiz. Shahin muallimning e’tiqodli ekanini ko‘rasatish barobarida madrasa ta’limiga bo‘lgan ishonchi, hurmatini yo‘qotishi uni yangi ta’limdan najot izlashga undaydi. O‘qituvchilik kasbini hayotining mazmuni deb hisoblagan Shahin muallim Istanbul (o‘sha davrdagi poytaxt)da qolish imkoni bo‘la turib, yangiliklar, rivojlanishga qarshi bo‘lgan Sariova hududiga yangi usulda ta’lim berish uchun yo‘l oladi, asarni shu o‘rni “Choliqushi” romanidagi Feridening o‘z ixtiyori bilan Onado‘liga ketishiga o‘xshaydi. Shahin muallimning Sariovaga ketish istagi maorif vazirligida g‘ayrioddiy holan sifatida qabul qilinadi. Madrasa ta’limini ko‘rgan mullavachchalar g‘arblashuv va shu barobarida har qanday yangilanishga qarshi ekanliklarini namoyon qilishadi. Sallani ham yechishni istamay, yangi qalpoqni kiyishni ham rad etishadi. Yangi usul maktablarida bolalari keraksiz biliblarni egallayotganlarini bahona qilgan Sariova xalqi farzandlarini hofiz (go‘zal qiroat qiluvchi) qilib yetoisttirish uchun tirishib, davlat tomonidan ochilgan boshlang‘ich maktablarga farzandlarini yuborishmaydi. Otaturk davrining eng kata muammolari tom ma’noda ushbu asarda tasvirlangandir.

Romanda Sariova xalqi juda faqir ekani aytiladi, ayni paytda bu faqirlik faqatgina moddiy ma’noda emas edi. Sariova xalqining yo‘qsilligi johillikning majoziy ko‘rinishiga ishora qilinadi. Xalqning johilligiga sabab esa ta’imdan voz kechganliklari, yangiliklarni qabul qilish istamaganliklari edi.

Shahin muallimning tayinlangan maktabi chin ma’noda haqiqiy muammo edi, maktab deyishga til bormaydigan darajada xarob bino edi. Shu sababdan ham Shahin muallim daslab o‘z ishini maktab binosini epaqaga keltirishdan boshlaydi.

Hududning eng gavjum boshlang'ich maktabi bo'lishi bilan birga ta'lim tizimini oqsoqlashiga sabab bo'layotgan maktablardan biri bo'lib yangi binoga ehtiyoj sezayotgan edi. Uzoq urinishlardan so'ng Shahin muallim yangi bino barpo etilishiga erishadi.

Asarda tamal mafkuraviy konflikt oydinlar (yangilik tarafdorlari) va so'ftalar (eski tizim tarafdorlari)ning kurashlari asosiga qurilgan. Sariova xalqi muallimni bolalarni dindan, axloq-tarbiyadan uzoqlashtirishda ayblasa ham, muallim taslim bo'lmaydi, o'z tarafdori bo'lgan oydinlarni ham Sariovadagi ta'limda evrilish qila olishlariga, qoloqlikka barham bera olishlariga ishontiradi.

Shahin muallimning harakatlarini doimo qo'llab-quvvatlaganlardan biri Najib isimli oydinchi edi. Asl kasbi muhandis bo'lgan bu yangilik tarafdori xalq johilligining sababi o'z qobig'idan chiqmay, ma'nan ortda qolib ketgan madrasa ta'limi deb hisblaydi. Yana bir oydinchi muallimlardan biri bo'lmish Mehmet Nihat Afandi, keyinchalik Shahin muallimning o'z ham tuhmat bilan jinoyatch deb topilin, surgun qilinadi. Surgundaligida ham eskicha qarash vakillari bilan kurashini davom ettirgan Shahin muallim surgundan qaytgach Sariovaga kelganida uni nafaqat eski fikrlovchilar, balki Milliy ta'lim Vazirligi ham yomonotliqqa chiqarishi Sariovadan bosh olib chiqib ketishiga sabab bo'ladi.

“Yashil kecha” Jumhuriyat davridagi ta'limiy to'qnashuvning eng ochiq ko'rgazmasidir. Masalan, Shahin muallimning “Lisoni usmon” atamasining o'rniga “Turkcha” atamasining qo'llashi maktabdan quvilishiga sabab bo'lishi mumkin edi. O'xshash bir holat: bolalarga shiddat ko'rsatish maktab ta'limida ta'limning bir qismi sifatida qarashi qoralanadi. Shahin muallimning urinishlari butun davrni o'zgartirishga ojizlik qilsa ham, o'sha davr eski fikrlovchilarining fikriy hukmdorligini qo'llaridan olishga erishdi. Shahin muallim madrasa ta'limini shunday baholaydi:

1) madrasa yosh miyalarni noto'g'ri yo'lga kiritib, jamiyat uchun zararli inson sifatida tarbiyalaydi;

2) dinni yanglish anglab, no‘to‘g‘ri talqin qilish jamiyat uchun har zamonda ham tahlikalidir.

Rashod Nuri Guntekinning “Yashil kecha” romanida Milliy maqsadlar ijtimoiy muammolar orqali ochib berilgan. Jumhuriyat davrining asosiy masalalarini tashigan bu romanda urg‘u mamlakatni yangi maktablar bilan qutqara olish fikridir. Shahin muallim ham shu fikrga ishonib, buni o‘ziga shior deb biladi. “ O‘qituvchilikka yangi bir din kabi e‘tiqod qiluvchi, uning muqaddas tuyg‘usiga ich-ichdan yongan otashqalb havoriy” hisoblanmish Shahin muallim kasbini boshqa hech bir maqsadga joy qolmaydigan darajada hayotiga kiritadi. O‘zini bu kasbga fido qilishi uning milliy o‘zligining qusurli ekanini anglatmaydi, aksincha dars rejasida ham milliy shaxsiyat masalasini milliy til bilan kiritishi uning o‘z zamonasida ancha ilgari ketganini bildiradi. “Shahin afandi Sariovadagi vazifasini keng qamrovda amalga oshirishiga qaror qilmish edi. Uning fikricha, eski muallimlar faqatgina bolalar bilan emas, balki ularning ota-onalari bilan ham shug‘ullanishi kerak edi” shaklida keltirilgan jumlar milliy ong shakllantirishdagi urinishlari uchun isbotdir. [1. 92-bet]. Shu sababdan milliy tiklanish uchun qisqa davr kifoya qilmasligini anglamoq joiz.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, “... ma’rifatparvar adiblar asarlaridagi o‘qituvchi, ziyoli va boshqalar jaholatga qarshi kurashuvchi qahramonlardir. Muallim obrazi ma’rifatparvar adabiyotining ideal qahramonidir. Uning timsolida asrlar bo‘yi ilmsiz yashab kelgan xalqqa bilim orqali yorug‘ dunyoni ko‘rsatish, shu tariqa ommani xayrli ishlarga yo‘llash tushunchalari mujassamlashtirilgan” [4. 120-bet].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Guntekin Rashod Nuri. Yeşil Gece. İstanbul: İnkılap Kitabevi. 2010.
2. Kavcar, Cahit. Bir Öğretmenin Romanı: Yeşil Gece. Ankara Üniversitesi Eğitim Bilimleri Fakültesi Dergisi. 1972. s. 167-187-betlar.
3. Püsküllüoğlu, Ali. Türk Romanları Kısa Kronolojisi. Türk Dili Aylık Dil ve Edebiyat Dergisi – Roman Özel Sayısı I-II. Ankara: Türk Dil Kurumu. 2017. 119-124-betlar.
4. Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. I жилд, Т.,1991,-Б.120.